

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5141100 - o'zbek tili va adabiyoti bakalavr
ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

TAJIBOEVA DILFUZAning

**«OGAHIY G`AZALLARIDA SHE`RIY SAN`ATLAR»
*mavzusidagi***

MALAKAVIY – BITIRUV ISHI

Ilmiy rahbar:

N.Allamberganova

NUKUS- 2011

**Malakaviy – bitiruv ishi o`zbek adabiyoti kafedrası
yig`ilishining «_____»dagi №____bayonnomasi bilan
himoyaga tavsiya qilindi.**

Fakultet dekani:

dots.K.Tashanov

Kafedra mudiri:

f.f.n.S.Matyakupov

Ilmiy rahbar:

ass.N.Allambergenova

**Tajiboeva Dilduzaning «OGAHIY G`AZALLARIDA SHE`RIY
SAN`ATLAR» mavzusidagi bitiruv – malakaviy ishiga Davlat attestatsiya
komissiyasining qarori bilan «_____» ball («_____»%) qo`yildi.**

DAK kotibasi:

S.Bekchanova

OGAHY G'AZALLARIDA SHE`RIY SAN`ATLAR
MUNDARIJA

K i r i sh.....4-bet

I bob. OGHIY – BUYUK SO`Z SAN`ATKORI

1-fasl.Oghiy hayotiga chizgilar.....7-bet

2-fasl.Oghiyning shoirlik mahorati.....9-bet

II bob. OGHIY LIRIKASINING BADIY XUSUSIYATLARI

***1-fasl. Oghiy she`riyatida ma`naviy san`atlarning
ishlatilishi.....18-bet***

***2-fasl.Oghiy she`riyatida lafziy san`atlarning
qo`llanilishi.....37-bet***

Umumiy xulosalar.....45-bet

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....49-bet

K I R I Sh

O'zbek xalqining doimiy orzularidan biri xalqni ma'naviy jihatdan yuksaltirish, komil insonni tarbiyalab etishtirish bo'lib kelgan. Ayniqsa, istiqloq davri milliy mustaqillik mafqurasi yangi avlod ma'naviy kamolotini juda-juda taqozo etadi. «Milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, insonparvarlik, o'z Vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotgani, boy milliy, madaniy tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturini isloh qilish omillaridan biri hisoblanadi»¹.

Milliy mustaqillik mafkurasi adabiy merosga halol, xolisona munosabatni talab etadi hamda uni davlat va jamiyat rivojlanishidagi tayanch tamoyillardan biri sifatida tushunadi. Shuning uchun ham biz o'z malakaviy ishimiz uchun milliy adabiy merosimizning muhim bir qirradi Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning shoirlik mahorati mavzuini o'rganish ob'ekti qilib oldik. Chunki insonning ko'ngil hayotiga teran kirib borgan Ogahiy din, axloq, ma'naviyat, adolat to'g'risida ham o'z fikrlarini ochiqdan-ochiq izhor qila olgan ulkan siymolaridan biridir.

Xorazm adabiy muhitida juda katta o'rin tutgan, nafaqat Xorazmda, balki umuman o'zbek mumtoz adabiyotida ijodiy merosi ko'lami va badiiy mahorati jihatdan A.Navoiydan keyin ikkinchi o'rinda turadigan Ogahiy asarlarini o'rganish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilganligi barchaga ma'lum. Shoirning hayoti va ijodi haqida oliy o'quv yurtlari uchun nashrdan chiqqan darsliklarda, adabiyotimiz tarixiga bag'ishlangan, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi qoshidagi Til va adabiyot instituti tomonidan chop etilgan «O'zbek adabiyoti tarixi»da, shuningdek, professor N.Komilov, Botirxon Valixo'jaev, Abdurashid Abdug'afforov,

¹ Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zbekiston Respublikasi «Talim to'g'risida» gi qonuni. O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturi.-T.: Sharq, 1997, 38-bet.

Nusratulla Jumaxo`ja, Ibrohim Haqqulov kabi olimlarning dissertatsion ishlari va shu asosda e`lon qilgan maqolalarida Ogahiy ijodi va hayotining turli jihatlari haqida qimmatli fikr-mulohazalar o`rtaga tashlanadi, muayyan xulosalar chiqariladi. Biroq bu izlanishlar Ogahiy siymosi, ijodiy merosi oldida juda oz sanaladi. Chunki Ogahiy adabiy merosi juda katta ko`lamli, g`oyaviy-badiiy jihatdan e`tiborga loyiqdir. Shuning uchun ham 1998 yilda I.A.Karimov rahbarligidagi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi buyuk shoir tavalludining 190 yilligini mamlakat miqyosida nishonlash to`g`risida tarixiy qaror qabul qildi. Oradan o`n yil o`tib 2009 yilda Ogahiy tavalludining ikki yuz yilligini nishonlash to`g`risida ham qaror qabul qilindi. Ushbu qaror asosida Ogahiy yubileyi respublikamizdagi barcha oliy va o`rta maxsus o`quv maskanlari, maktablar va madaniy muaassasalar, mehnat jamoalarida juda katta tantana sifatida nishonlandi.

Biz o`z malakaviy bitiruv ishimizda shoir asarlarining xususiyatlariga diqqat qaratishni lozim topdik. Negaki, ayni kunda umumta`lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida mumtoz adabiyotimizning poetikasiga, ayniqsa, badiiy san`atlar va qofiya tizimiga, bir so`z bilan aytganda asarning badiiyligini ta`minlaydigan shakliy xususiyatlarga ko`proq diqqat qaratilmoqda. Oliy o`quv yurtlariga kirish uchun o`tkaziladigan test-sinovlarida ham mumtoz she`riyatimizning ushbu jihatlari bilan bog`liq bo`lgan savolu javoblar ko`pchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun Ogahiy asarlarini tahlil qilishda shoir mahoratining she`riy san`atlar bilan bog`liq tomonini o`rganishni o`z oldimizga maqsad qilib qo`ydik.

Malakaviy ishimiz materiallari umumta`lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida Ogahiy hayoti va ijodini o`rganishga bag`ishlangan mashg`ulotlarni, shuningdek, adabiy to`garak, sinfdan

tashqari o`quv ishlarini tashkil qilish va o`tkazishda o`zimiz va atrofdagi o`qituvchilar uchun katta yordam bo`ladi, degan umiddamiz.

Malakaviy ishimiz «Kirish», «Umumiy xulosalar» va «Foydalangan adabiyotlar» bo`limlaridan tashqari «Asosiy qism» dan iborat. O`z navbatida asosiy qism 3 ta mustaqil fasllarni o`z tarkibiga oladi.

Ishimizni tayyorlashda Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov rahbarligi ostida olib borilayotgan milliy istiqlol mafkurasi g`oyalari, taniqli adabiyotshunos olimlar G`. Karimov, A. Xayitmetov, A. Abdug`afurov, N.Komilov, T. Boboev, A. Hojiahmedov, S.Ro`zimboev, Nusratulla Jumaxo`jaev, Ibrohim Haqqul, Botirxon Valixo`jaev kabilarning mumtoz adabiyot masalalari bo`yicha yaratilgan asarlarini ilmiy asos sifatida foydalandik.

Adabiy manba sifatida esa, Toshkentdagi G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti tomonidan 1971-1974 yillar davomida chop qilingan. Ogahiyning olti jildlik «Asarlar» kitoblariga kirgan lirik asarlarini va albatta, 9-sinf maktab darsligini tanladik. Ishimiz bu borada qilinayotgan birinchi tajriba bo`lganligi tufayli muayyan kamchiliklar bo`lishi mumkin. Ishda shoir asarlarini imkoniyatimiz qadar tahlilga tortishga harakat qildik.

I bob. OGAHIY – BUYUK SO‘Z SAN‘ATKORI

1-fasl. Shoir hayotiga chizgilar

O‘zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, uni yangi taraqqiyot pog‘onasiga ko‘targan, o‘zining serqirra ijodi bilan madaniyatimiz tarixida chuqur iz qoldirgan ijodkorlardan biri Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy o‘z ijodining ko‘lami va ijodiy mahoratining yuksakligi bilan haqli ravishda A.Navoiy bilan qiyoslanadi. Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitining serqirra ijodkori, talantli shoir, zukko tarixchi va mohir tarjimon sifatida milliy madaniyatimiz tarixida iz qoldirdi. Uning «Ta‘viz ul oshiqin» («Oshiqlar tumori») deb nomlangan devoni uni mumtoz shoir sifatida tanitsa, «Fidrdavs ul-iqbol», «Riyoziy ud-davla», «Gulshani davlat», «Shohidi iqbol» kabi asarlari talantli tarixnavis ekanligini isbotladi. Mirxondning «Ravzat us-safo», Astrabodiyning «Tarixi Jahonkushoiy Nodiriy», Zayniddin Vosifiyning «Badoe‘ ul-vaqoe‘», Muhammad Yusuf Munshiyning «Tazkirai Muqimxon» kabi o‘nlab asarlarini fors tilidan o‘zbekchaga tarjima qilgani esa uning nomini mohir tarjimon sifatida shuhratga beladi.

Ogahiy 1809-yili 17-dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida Erniyozbek mirob oilasida tavallud topdi. Shu erda boshlang‘ich ma‘lumotni oldi. Yoshligida otasi vafot etib, adabiyotimizning Yana bir yorqin siymosi bo‘lmish amakisi Munisning tarbiyasida bo‘ldi. U maktab, keyinchalik madrasa tahsili davomida arab va fors tillarini, tarix ilmini puxta o‘rgandi. 1829-yilda Munis vafot etgach, hukmdor Olloqulixon uning o‘rniga Ogohiyni mirob etib tayinlaydi. Suv tanqis bo‘lgan Xorazmda miroblik nihoyatda mas‘uliyatli vazifa bo‘lib, uni ishonchli va halol odam boshqarishi lozim edi.

Shu davrdan Ogahiyning davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati boshlandi. U davlat ishlari bilan birga badiiy ijod hamda ilmiy faoliyatni to'xtatmadi. Saroy tarixchisi vazifasini ham olib borayotgan Ogahiy 1839-yilda Munis boshlab qo'ygan «Firdavs-ul iqbol» asarini davom ettirib, Xiva xonligining 1825-yilgacha bo'lgan tarixini yozib tugatdi. 1844-yilda «Riyoz ud-davla» kitobini tamomladi.

1845-yildan Ogahiy hayotidagi og'ir, musibatli davr boshlanadi. Shu yili miroblik ishlari bilan safarda yurganda, tasodif tufayli oyog'i qattiq shikastlanadi va hali yigit yoshidayoq to'shakka bog'lanib qoladi. Shu dard azobini tortayotgan shoir umr yo'ldoshidan ham ajraladi. 1857-yilda miroblikdan iste'fo berishga majbur bo'ladi. Lekin bu musibatlar oldida u chekinmadi. Kuchli iroda, hayotni sevishi shoirni ijodga, izlanishga undadi. 1846-yilda «Zubdat-ul tavorix», 1847-1855-yillarda esa «Jome ul-voqeoti sultoni» tarixiy asarlarini yozdi. Tarjimalar bilan shug'ullanib, Kaykovusning «Qobusnoma», Nizomiy Ganjaviyning «Haft paykar», Sa'diy Sheroziyning «Guliston», Badriddin Hiloliyning «Shoh va gado», Abdurahmon Jomiyning «Yusuf va Zulayho» va boshqa qator asarlarni o'zbekchalashtirdi. XIX asrning 60-yillarida «Gulshani davlat» va «Shohidi iqbol» tarixiy asarlarini yozdi. Ogahiy 1874-yili vafot etdi.

2-fasl. Ogahiyning shoirlik mahorati

Ogahiy o'z davri adabiy muhitining faol ishtirokchisi, tarixchi olimi sifatida juda ko'plab qalamkashlar bilan muloqatda bo'lgan va ular bilan ustoz-shogirdlik munosabatlari o'rnatgan Ogahiy shoir va shoh Muhammad Rahimxon II, ya'ni Feruz bilan ustoz-shogirdlik munosabatida bo'lganligi qayd etiladi. Bunday dalillarni Ogahiy «Ta'viz ul-oshiqin» devonining «Debocha» qismida ham uchratamiz: «...bir kuni Feruz faqirga inoyat nazari bila boqib, dilnavozlik yuzasidan xitob qilib dedikim: Borchha musavadalardagi va bayozlardagi parishon bo'lgan she'rlariningni ja'm etib, devon suratida tartib bergil va anga debocha ham yosob so'ngra aytilgan ash'oringni dog'i hamul devonda o'z mahalida raqam silkiga gavhar yanglig' tergil. Nedinkim, kishiga to qiyomatgacha boqi qolaturg'on yodgor va farzandi saodatosor yaxshi so'zdukim, anga zamon havodisining ofoti zarari aslo etushmas va davron inqilobining g'ubori hargiz ahvoli boshiga tushmas».

Feruzning devon tuzish to'g'risidagi maslahati buni shohning farmoni ham deyish mumkin, Ogahiy har xil to'plam va bayozlarda sochilib yotgan turli janrlardagi adabiyotlarning to'planib bir butun devon holiga keltirilishiga sabab bo'ldi. Bu ijobiy taklifni qanday amalga oshirish har kimning iste'dodi va mas'uliyatiga bog'liq edi, albatta. Ogahiy va Feruzning ustozu shogirdlik munosabatlari, o'zaro ijodiy hamkorliklariga yaqol misol bo'lib ularning bir-birlari g'azallariga yozgan muxammaslari xizmat qiladi. Muxammas she'rning shunday bir turiki, u ikki qalb qo'ri bilan yo'g'riladi. Ogahiy va Feruz muxammaslari ham shunday xususiyat kasb etadi.

Ogahiy birinchi navbatda mohir gʻazalnavis shoir edi. U gʻazalning mavzu va shakl jihatdan har qanday turida erkin va ravon qalam surar edi. Ushbu janrning katta mahoratni talab qiluvchi nodir koʻrinishlaridan biri voqeaband gʻazaldir. Mana shu murakkab navda ham Ogahiy koʻplab gʻazallar yaratgan. Shunday boʻlsa ham Ogahiy sheʼrxonlar orasida koʻproq lirik shoir sifatida shuhrat qozongan. Shoir oʻz sheʼriyatining oshiqlar qalbiga yaqin, ular bilan doimo tumor kabi hamroh boʻlishini, ishq ahliga sirdosh boʻlishini orzu qildi va devonini «Taʼviz ul-oshiqin» deb atadi. Shoirning ushbu fikrlari baʼzi bir faxriya tarziyada yozilgan sheʼrlari tarkibida uchrab ham qoladi:

Ogahiy, dilsoʻz nazmingni etishsa ahli ishq

Boʻyniga taʼvizdek aylarlar ashʼoringni band.

Yaʼni muallif oʻzicha fahrlanayaptiki, agar sidqidildan chiqqan sheʼrlarimni oshiqlar - ishq ahli eshitib qolsa boʻyinlariga tumor kabi osib oladilar, deydi shoir. Bu oʻrinda shoir toʻla haq ekanligini davr koʻrsatdi. Shoirning oʻnlab gʻazal va muxammaslari xonandalar tomonidan kuyga solinib, oshiqlarning dil izhori sifatida yashab kelmoqda.

Ogahiy juda koʻpchilik gʻazal va muhammaslarida millatparvarlik, xalqparvarlik gʻoyalari ilgari suriladi. Mehnatkash va zahmatkash elga yaqinlik, oddiy kishilar qismati uchun qaygʻurush va oʻzini masʼul sezish Oghiyni oʻz davrining faol fuqarosi, vatanparvari darajasiga koʻtaradi. Shoirning yuragini kuydiradigan holatlar - iqtisodiy ahvoli nochor, chorasizlikni chora oʻrnida koʻrishdan boshqa imkoni yoʻq kishilarning azob-uqubatlari edi. Ehtimol ana shuning uchun ham mutafakkir shoir qish shiddatidan tanu joni titragan yoʻqsillarning holini qogʻozga tushirgandir:

Ul gado holiga rahm et g`anikim, kechalar,
Qochirub uyqusin aylar diydasin giryon sovuq.

Ogahiy chin ma`noda millatparvar shoirdir. Uning qalbidagi millatga muhabbat hissi nihoyatda samimiy. Yoritayotgan his-tuyg`ulari tabiiy, fikrlari tarixiy ildizdan ajaralmagan. Bu xil xususiyatlar uni vatandoshi buyuk ijodkor va mutafakkirlar Najmiddin Kubro va Paxlavon Mahmudga yaqinlashtiradi.

Tasavvufdagi mustaqil bir tariqatga asos solgan Najmiddin Kubro, javonmardlik g`oyalarini ifodalash bilan ruboiy janrining dovrug`iga dovrug` qo`shgan Pahlavon Mahmud Ogahiyning vatandoshi bo`lish bilan birga uning salaflari ham edi. Shoir kubraviylik tariqatidan puxta xabardor bulganidek, Pahlavon Mahmudning javonmardlik tushunchalaridan ilhomlangani shubhasiz.

Muhammadrizo Ogahiy g`azallaridan birida:

Ohkim ahli zamon olida odam ul durur,

Kim esa hayvon kabi nodonu xo`rdu xoblig`,-

deydi. Ya`ni zamondoshlar nazdida kim hayvon singari eb-ichib, uxlab, nodon bo`lsa, shu kishi odam sanaladi,-deya noliydi. Hayvonsifatlikning qadr topishi, hayvontabiat odamlarning e`zozlanishi shunchaki hodisa emas. Bu ahloqiy, ma`naviy qadriyatlarning qadrsizlanishi edi. Bu narsalar shoir nazdida ruhdan yiroqlashib, nafsga taslim bo`lishning oqibatidir. Ogahiy ahloqiy tanazzuldan qutilishning yo`lini ko`rsatib beradi:

Begona qil gar odam ersang o`zni nafsdin,

Ixlos ila mudom o`lubon oshnoyi ruh.

Ogahiy fikr qamrovi juda keng, mushohada iqtidori o`tkir, tabiatan hokisor, ruhan bedor va ogoh shoirdir. Uning ruhiy

olami haqiqatga tayanadi. Shoir nazdida bu olam ko`hna bir hasratxona. Barcha shoirlarda bo`lganidek, Ogahiyda ham dard, hasrat lirik qahramonning doimiy yo`ldoshi. U oshiq sifatida tole`sizligi, zamonning kajraftorligi, odamlarning oqibatsizligi va bag`ritoshligi, odamning qo`li qisqaligi, dono va oqillarning xor-zorligi – xullas, xalq g`ami hasratidan qayg`uradi. Lekin Ogahiy hasrat va kulfatida qullik, uning oldida ojizlik yo`q. Aksincha, hasrat unga tobe, g`ussa uning idrokiga qaramdir.

O`zini tanigan va o`zining qadr qimmatini hurmat qilishga qodir odam borki, xalqi, mamlakati taqdiri va kelajagiga befarq qaramaydi. Shunda u istasin-istmasin millati va Vatani uchun chin ko`ngildan mas`uliyat his qiladi.

Millat borki, davlat bor, davlat borki, hukmdor va uning atrofidagi arkoni davlat bor. Insoniyat bir umr adolatli xukmdorni orzu qilib keladi. Shu orzu ehtiyoji bilan qanchadan-qancha ertak va afsonalar to`qilgan, doston va g`azzallar bitilgan. Zamonasining peshqadam farzandi Ogahiy ham bu masalada bosh qotirgan. Shoir g`azallaridan birida shunday yozadi:

Vah nechuk mahkam bo`lur ul shohga davlat qasrikim,
Bo`lmasa arkoni aning ko`hna davlatxohlar...

Shoir fikricha, davlat qasrining mustahkam bo`lishi uchun shoh atrofidagi arkoni davlat, ya`ni davlat ustunlari tajribali - ko`hna, ko`pni ko`rgan bo`lishi darkor. Ushbu fikr bir jihatdan e`tiroz qo`zg`atishi mumkin: nega endi eski kishilar yangilarga - yoshlarga joy bo`shatib bermasligi kerak ekan? Nega shoir yangilanishga qarshi chiqayotir? Keyingi bayt ushbu xil savolga javobdek yangraydi:

Pasthimmat johili nav` davlat o`lmas dastyor,
Shohga lozimdir necha donoyi oliy johlar.

Ya`ni tajribasi yo`qlar pashimmat bo`ladilar, ular faqat dastyorlikka yarashi mumkin, oliy mansab va martabalarga esa, dono kishilar zarur, deydi shoir.

G`azalning davomida yana bir baytda shunday o`qiymiz:

Johilu xudbin ko`ra olmas o`zidan o`zgani,
Loyiqi davlat emasdur har nazar ko`tohlar.

Dunyoda johilu xudbin, albatta, ko`p. Bunday kishilar o`zlaricha yashab, ko`pchilikning ishiga aralashmasa, balki jamiyatga u qadar ziyon-zahmati tegmasligi ham mumkin. Ammo kattaroq mansabga o`tirib olsalar, ayniqsa shoh atrofidagi martabalarining birini egallasa, xalqning holiga voy deyavering. Ogahiy yuqoridagi baytda xuddi mana shu narsani ta`kidlagan va ularni davlat, ya`ni boshqarish ishlariga butunlay noloyiq, deya uqtirgan.

Shoir lirikasining g`oyat muhim xususiyatlaridan biri shuki, u o`z she`rlari orqali o`zbek xalqining milliy urf-odatlarini, uning ruhiyatini ajoyib bir tarzda tasvirlaydi, milliy kolorit shoir poeziyasining asosini tashkil etadi. Ayniqsa Ogahiy masnaviylarida dorbozlar o`yini, kurash, musiqa bazmlari zo`r ehtiros bilan ifoda topadi.

Ogahiy lirik she`rlarida go`zallikni alohida e`tibor bilan kuylaydi. Goh ijtimoiy hodisalar, goh tabiat o`zgarishlari, kishilardagi fazilatlar, yuz-ko`z, qomat go`zalligi - bularning hammasi Ogahiy tanlagan estetik go`zallikdir. Bunday go`zallik manbaini Ogahiy birinchi navbatda insondan izladi. Insonning tashqi ko`rinishidangina emas, balki ma`naviy dunyosidan ham izladi.

Shoir yorning go`zal qad-qomatidan, to`lqin urgan sochidan, payvasta qoshidan, qora holidan, sho`x suxanidan, la`li labidan, umuman uning eng oliy tuyg`usi muhabbatdan ilhomlanadi:

Ul yuz gul nigorning mehri jamolini ko`ring,
Mehri jamoli ustida ikki hilolini ko`ring.

Ikki hilolini ko`rib qonmasa mehringiz agar,
Safhai orazi uza nuktai holini ko`ring.

Nuktai holini ko`rib, sabr eta olmas ersangiz,
Xusni jamoli bog`ida qaddi niholini ko`ring.

G`azal mana shu yo`sinda sevikli yorning barcha a`zolari ta`rifiga, ularning go`zalligiyu nafisligi oshiqning ruhiyatining qaysi qirrasiga ta`sirini juda ta`sirchan bir ravishda ifodalashga qaratilgan.

Ogahiy she`rlarining deyarlik barchasida shoirning o`zi, uning fikr-tushunchasi, nozik va samimiy ichki kechinmalari ifoda etiladi. Shoir poeziyasida ishq-muhabbat hayotdan olingan taassurot, yil fasllari, o`zining shaxsiy hayoti, xalq urf-odatlari fonida ifoda topadi. Qisqasi, hayotiy voqea-hodisalar, ular haqida tushunchalar Ogahiy she`riyatining mavzui sanaladi. Hayotdan olgan taassurotlarini Ogahiy ko`z yoshi bilan, ba`zan nafrat va g`azab bilan, ba`zan istehzo bilan, quvnoq xandalar bilan, ba`zan muloyimlik bilan, ba`zan xushchaqchaq kulgu bilan qarshi oladi va ifodalaydi. Bularning barchasi shoir hissiyoti orqali aks ettiriladi. Shoirning har bitta she`rida lirik qahramon hayotiyli va tarixiyligi bilan ajralib turadi.

Shoir sheʼrlarida mazmunning ravshanligi, chuqurligi va shu mazmunni ifoda etgan shaklning goʻzalligi, sofligi va badiiyligi uchun kurashadi. U uzoq vaqt ulugʻ shoirlardan, xususan oʻziga ustoz deb bilgan, A.Navoiy, Fuzuliy, Shermuhammad Munis kabilardan oʻrganishi natijasida shunday yutuqlarga erishdi. Ogahiy soʻz sanʼati oldida juda katta masʼuliyat his qilgan holda ijod qiladi. U gʻazallaridan birida shunday yozadi:

Koʻngul bir bahri zahhor andadir pokiza gavhar soʻz,

Vale shart ulki maʼni shohidiga boʻlsa zevar soʻz.

Yaʼni shoir koʻngilni toʻlqinlab turuvchi dengizga, koʻngildagi soʻzni esa oʻsha dengizdagi billuriy gavharga oʻxshatadi. Ammo mana shu gavharga oʻxshagan soʻzni terib qoʻyish bilan ish bitmaydi, balki maʼno goʻzalligi bilan unga ziynat berish zarur, deya taʼkidlaydi. Bu oʻrinda Ogahiy faqat shoirlik sanʼati, badiiy ijod haqida fikr bildirayotgani yoʻq, albatta. Baytda umuman soʻzlashish va muomala odobi, insoniy munosabatlarda yaxshi, samimiy xulq haqida ham mulohaza yuritilmoqda.

Ogahiy oʻz ijodida xalq tilining, uning soʻz boyligining qatlamlaridan juda ustalik bilan foydalanadi. Uning asarlarida xalq tiliga xos soʻz va iboralarni, maqol va matallarni koʻplab uchratish mumkin. U xalq tilini, uning ijodini avom tili yoki ijodi deb kamsitmadi. Aksincha oʻz asarlarini jonli tilning goʻzal namunalarini bilan boyitdi.

Ogahiy sheʼriyatining turmushga munosabatdagi estetik yoʻnalishlari, hayotiyliigi, umidga toʻla ohanglari uning gʻoyaviy va badiiy yoʻnalishini belgilaydi. Shoir gʻoyalarini oʻzida mujassamlashtirgan va u tomonidan zoʻr ishtiyoq va ehtiros

bilan kuylangan lirik qahramon eng yuksak insoniy fazilatlarga ega. U olijanob maqsadlar sari intiladi. Muhabbatda sadoqat, do'stlikda sabot, samimiyat, vafodorlik Ogahiy yaratgan lirik qahramonning ideali hisoblanadi.

Ogahiy she'riyatidagi lirik qahramonning fazilatlari, ayniqsa muhabbat mavzusidagi asarlarida to'liq va ravshan ochiladi. Ehtiros va samimiyat bilan sevgan oshiq o'z yoridan ham shunday samimiyat va vafoni kutadi, yorini samimiy va vafodor bo'lishga da'vat etadi. U muhabbatda baxtli bo'lishga, hayotda o'z taqdirini o'z qo'lga olib, to'yib, qonib yashashga intiladi. Ogahiy yaratgan lirik qahramon bukilmas iroda, aql-idrok va tashabbus egasidir. U dunyo go'zalligi bilan zavqlanadi.

Jannatu to'biyu kavsarga bermon negakim,

Yorga jannat ruhu, qad to'biyu, kavsar hadis,-

deya shoir dunyoviy muhabbatni jannat va undagi ne'matlardan ustun qo'yadi. Ogahiy she'riyati muhabbat kechinmalarining son-sanoqsiz kechinmalarini o'ta nozik did bilan tasvirlaganligi she'riyatni inson ruhiy dunyosining, ma'naviy hayotining o'ziga xos ko'zgusiga aylantirgan.

Xullas, Ogahiy shoir sifatida o'z zamonasining ijtimoiy va ma'naviy hayotining deyarli barcha jihatlarini qamrab olgan, zamondoshlari ruhiyatining nozik qirralarini to'la xis qilib, nazmga solgan buyuk shoirdir. Shuning uchun ham shoir asarlari yillar o'tsa hamki, xalqimiz ma'naviy boyligi sifatida xalq e'zozu e'tiboriga loyiq bo'lib kelmoqda.

O'zbek adabiyotining taniqli tadqiqotchilari professor G'. Karimov va S. Dolimov domlalar Ogahiy asarlarining 6

tomligiga yozgan soʻzboshilarida shunday eʼtirof qilishgan edi: «Zahiriddin Muhammad Bobur oʻzigacha boʻlgan adabiyotimizga umumiy nazar tashlab, oʻzbek shoirlari ichida eng «koʻp va xoʻb» sheʼr aytgan shoir deb A. Navoiyni koʻrsatgan edi. Shu ixcham adabiy formula nuqtai nazaridan Boburdan keyingi adabiyotimizni koʻzdan kechirib, bu har ikki belgini oʻzida barobar mujassam etgan, yaʼni koʻp va «xoʻb»-yaxshi yozgan shoirni tanlash zaruriyati tugʻilib qolsa, shubhasiz birinchi navbatda Ogahiyga toʻxtalish kerak boʻladi»¹.

Demak, Ogahiy oʻzbek sheʼriyati osmonida Alisher Navoiydan keyingi ikkinchi porloq yulduzdir. Uning adabiy merosini har tomonlama oʻrganish va xalqimiz orasida targʻib qilish, yosh avlodga oʻrgatish biz, yaʼni buyuk shoir vorislarining muqaddas burchimizdir.

¹ Karimov Gʻ. , Dolimov S. Mushammad Rizo Ogahiy, maqola Ogahiyning asarlar toʻplamining 1-jildida. T., Adabiyot va sanat nashriyoti. 1971, 5-bet

II bob. OGAHIY LIRIKASINING BADIY XUSUSIYATLARI

1—fasl. Ogahiy she`riyatida ma`naviy san`atlarning ishlatilishi

Ogahiy «Taviz-ul oshiqin» devoni debochasida she`r va shoirlik haqida «she`r bir ne`mati o`zamodurkim, tangri taolo oni har kishiga ato qilmomishdur va uni aytmoq hunari har kimning qo`lidan kelmomishdir»<sup>1</sup>, -degan edi. Ushbu muxtasar fikrda she`r va shoir tushunchalarining tub mohiyati, asosiy jihati ifodalangan. Bu – ularning ilohiylik bilan bog`liqligidir. Chunonchi, she`r Allohning in`omi, ilohiy nemati bo`lsa, shoirlik tangri nazaridagi xos insonlarga ato etilgan salohiyatdir. Shoir ta`rificha tangri muqaddas va takabbur narsalarni har kimga ham ravo ko`ravermaydi. She`r yozish ham shunday, alohida qobliyat bo`lgani bois, faqat ayrim kishilargagina nasib etadi. Bu e`tiroflarda aslida she`rning sehrli noyob hodisa ekani, shoirning esa oliy ne`mat sohibi sifatida ehtiromga loyiqligi aks etgan. Shuningdek, bu o`rinda she`r va shoirlikka yaxlit holda Yaratgan inoyatining tuhfası sifatida qaraladi va «So`zdin baqoliroq yodgor yo`qdur» (Navoiy) hikmatidagi chuqur falsafiy ma`noga urg`u beriladi.

Mumtoz adabiyotimizda ming yillardan beri she`riy san`atlar masalasi ijod ahlining doimo diqqat markazida bo`lib kelgan. U yoki bu ijodkorlarning mahorati, salohiyati haqida gap borganda uning nimalarni tasvirlagani haqida emas, ko`pincha o`sha narsalarni qanday tasvirlagani haqida so`z yuritilgan. Xususan, adabiy asarlarda she`riy san`atlardan foydalanish mahorati hamma davrlarda ham san`atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. Shuning uchun ham she`riy

¹ Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. I jild. T.1971.

san`atlarni chuqurrok o`rganish ishlariga adabiyotshunosligimizda juda katta e`tibor bilan qaralmoqda, bir necha risola va monografiya xarakteridagi kitoblar chop qilinmoqda¹.

A.Navoiy davrida yashab ijod etgan adabiyotshunos olim Atoulloh Husayniyning «Badoe us-sanoe`» asarining A. Rustamov tomonidan o`zbek tiliga tarjima qilinib nashrdan chiqarilishi bu sohada olib borilgan ishlarning eng katta qo`lamlisi bo`ldi va ko`pchilik adabiyotshunoslarning ushbu jiddiy masalaga qiziqishini uyg`otdi². Ayni paytda ushbu masalaning maktab darsliklaridan ham muhim o`rin olganligi, test-sinov savolu javoblarida ham nufuzli o`rni borligi yoshlarning mumtoz she`riyatimizga qiziqishini yanada oshirdi.

Adabiyotimiz tarixi shundan dalolat beradiki, she`riy san`atlar shoir badiiy salohiyatini ko`z-ko`z qilish, uning xilma-xil san`atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkuri doirasining ko`lami, yuksak ijtimoiy-ahloqiy g`oyalarni jonlantirish san`atkorligi ifodasi bo`lib kelgan.

She`riy san`atlarni qo`llashda me`yor masalasi ham muhimdir. Ya`ni she`rda haddan tashqari jimjimadorlikka intilish - ko`plab san`atlarni qo`llash ma`qul bo`lmaganidek, asarlarda ilgari surilgan g`oyani, yoki muayyan narsa va tushunchani bezaklarsiz ifodalash ham she`r sifatiga, badiiy barkamolligiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Shuning uchun ham buyuk so`z ustalari she`riy san`atlardan o`rnida va me`yorida

¹ Rustamov A. Navoiyning badiiy mashorati, T.: Adabiyot va sanat nashriyoti, 1979; S`hoqov . Navoiy poetikasi, T.: Fan, 1983; Shojiashmedov A. Sheriy sanatlar va mumtoz qofiya, T.: Sharq, 1998; Boboev T., Boboeva Z. Badiiy sanatlar, T., 2001.

² Atoulloh Shusayniy. Badoe us – sanoe, T.: Adabiyot va sanat nashriyoti, 1981.

foydalanishgan. Mavlono Atoiy, Lutfiy, A.Navoiy, Bobur, Mashrab va boshqa etuk shoirlarning gʻoyaviy-badiiy jihatdan barkamol asarlari fikrimizning dalilidir. Ushbu shoirlar qatoriga biz oʻz bitiruv malakaviy ishimizda ijodini tadqiq obʻekti qilib olgan Muhammadrizo Erniyozbek oʻgʻli Ogahiyi ham kiritish mumkin.

Ogahiy sheʼriy sanʼatlarning har biri muayyan gʻoyaviy badiiy niyatga xizmat qilishini juda yaxshi anglagan. Shu tufayli ham uning har bitta ishlatgan sheʼriy sanʼati kitobxon koʻz oldida tasvirlanayotgan narsa yoki tushunchaning toʻlaroq gavdalanishiga xizmat qiladi. Sheʼrga latofat va goʻzallik bagʻishlab, kitobxon koʻnglini ham oʻsha zavq-shavqqa toʻla hissiyotlarga toʻldiradi. Shoir devonidan olingan quyidagi baytni koʻzdan kechiraylik:

Oʻyla toʻfon xez boʻldi ashku ohimdin bori,

Yer yuzin gʻarq aylab emdi mavj urar gardunda suv.

Bu oʻrinda mubolagʻa sanʼatining uchinchi darajasi, yaʼni gʻuluvv deb ataladigan sheʼriy sanʼatdir. Ogahiy tomonidan ustalik bilan foydalanilgan. «Aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin boʻlmaydigan tarzda tasvirlash gʻ u l u v v sanʼati sanaladi»¹.

Baytda Ogahiy koʻz yoshlarim va ohimdan shunday toʻfon vujudga keldiki, nafaqat er yuzini, balki osmonu falakni - gardunni ham suv bosdi, degan maʼno beruvchi gʻuluvv ishlatib, lirik qahramon chekkan jabru sitamning cheksizligini taʼkidlamoqda.

¹ Hojiahmedov A. Sheʼriy sanʼatlar va mumtoz qofiya, T.: Sharq, 1998, 11 – bet

Ushbu sheʼriy sanʼatning bir goʻzal namunasini shoirning mashhur «Sallamno», yaʼni «Ofarin» radifli gʻazalida ham uchratamiz:

Labing shirin takallumdin oʻlukni tirgizib aylar,
Suxanvar toʻti oso shakkaristoninggʻa sallamno.

Baytda yor lafzi, yaʼni soʻzining gʻoyat taʼsirchanligi - uning labidan chiqqan maʼnodor soʻzlar oʻlikni tiriltirishi haqida gap bormoqdaki, bu hol ham na aqlga sigʻadi va na hayotda roʻy berishi mumkin boʻlmaydigan hodisadir.

Ogahiy tasvirning gʻoyat taʼsirchan va nafis vositasi sanalmish mubolagʻa sanʼatining boshqa xillaridan ham ustalik bilan foydalanadi. Masalan:

Agarchi Yusuf ahli xusn sulton azizidir,
Nigorim olida lekin gʻulomu xoru kamtardir.

Yaʼni, goʻzallik ramzi sanalmish Yusuf husn mulkining sultoni va azizi boʻlsa ham, nigorim oldida u oʻzini qulday, xor va kamtar tutishga majbur, chunki nigorim xusni unikidan aʼlodir, deydi shoir ushbu baytda. Diniy va afsonaviy qahramon Yusufning goʻzalligi barchaga maʼlum. Rivoyatlarda keltirilishicha, Olloh insoniyatga berilishi kerak boʻlgan goʻzallikni teng ikkiga boʻlib, bir qismini Yusufga, ikkinchi qismini jami insoniyatga bergan ekan. Yaxshi xulq haqida gap ketganda xuddi shunday nisbat Muhammad paygʻambarga beriladi. Koʻrinib turibdiki, yuqoridagi baytda kishi aqliga sigʻadigan, biroq hayotda yuz berishi mumkin boʻlmagan hodisa haqida gap bormoqda. Shuning uchun ham bu oʻrinda mubolagʻaning nozik va taʼsirchan turi boʻlmish i gʻ r o q sanʼati ustalik bilan qoʻllanilgan.

Mubolag`aning yana bir xili aqlan ishonish mumkin bo`lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo`lgan mubolag`adir. Bu xil mubolag`a t a b l i g` deb yuritiladi. Ogahiy bu xil she`riy san`atdan ham ustalik bilan, boshqa xillarga qaraganda ancha faollik bilan foydalangan. Misollarga murojaat etamiz:

Yozarda yorg`a xat ilgima olsam agar qog`az,
Fig`onkim, ko`z yoshim turmay oqib bo`lg`usi tar
qog`az.

Yoki:

Oni ko`rgach yiqildim er uza o`zdin ketib andoq
Ki xushim qolmadi erdin turarg`a ehtirom aylab.

Birinchi baytning ikkinchi misrasida tablig`ning g`oyat chiroyli shakli ishlatilib, lirik qahramon dardining qay darajadaligini ochib turibdi. Yorga maktub bitish niyatida qo`limda qog`oz olamanu, biroq ko`zim yoshidan qog`oz har safar ho`l bo`lib qolaveradi. Bu esa aqlga ham sig`adigan, hayotda ham bo`lishi mumkin bo`lgan hodisalar.

Ikkinchi baytdagi vaziyat ham kitobxon ko`z oldiga keltirishi mumkin bo`lgan lirik qahramon vaziyati. Yorning oy yuzini ko`rib o`zini yo`qotib qo`ygan oshiq ehtirom uchun o`rnidan turolmay qolishi bo`lishi mumkin va kishi tasavvuriga sig`adigan hodisadir.

Mumtoz she`riyatimizda juda keng qo`llaniladigan she`riy san`atlardan yana biri t a s h b e h dir. Bu ikki narsa yoki tushunchani ular o`rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko`ra o`xshatish san`atidir. Tashbeh san`ati tasvirlanayotgan buyum yoki tushunchani yoxud shaxsni o`quvchi ko`z o`ngida aniqroq va jozibaliroq gavdalantirishga xizmat qiladi, asar timsollarining ma`naviy qiyofasini yaqqolroq

ochish, shoir g`oyasini o`quvchiga to`laroq va ta`sirchanroq qilib etkazish imkonini beradi. tashbehning yuzaga kelishida to`rt unsur ishtirok etishi mumkin:

O`xshamish – tasvirda fikr qaratilgan narsa yoki tushuncha.

O`xshatilmish – tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha.

Asos – nimaga ko`ra o`xshatishning yuzaga chiqqanligi.

Vosita – o`xshatilish belgisi.

Vosita ishtirok etgan o`xshatishlarda tashbex aniq ko`rinib, bilinib turadi. So`z san`atida -dek, -day, -cha, -simon, -vor, -saro, -oso, -vash, -iy, -oyin kabi qo`shimchalar, kabi, singari, misli, go`yo, yanglig`, xuddi, o`xshab, nechukki va boshqa so`zlar vosita bo`lib keladi.

Sharq adabiyotshunosligida tashbehlar haqiqiy va majoziy tashbehlariga bo`linib o`rganiladi. Aniq hayotiy buyumlar o`xshatish uchun tanlangan bo`lsa, haqiqiy tashbeh, noaniq va mavhum tushunchalar tanlangan bo`lsa majoziy tashbeh hisoblanadi. Ogahiy g`azallarida tashbehning har ikki xilidan ham unumli foydalanganligini ko`rishimiz mumkin:

Ul oy ruxsorikim ondin hamma olam munavvardir,

Latofat osmoni avjida hurshidi anvardir.

O`rulg`an ikki zulfi jonu ko`nglum qasdin etmaqda,

Sarosar jismi pechu tob topgan ikki ajdardir.

Musaffo tishlari kulgu ko`nglum qasdin etmakda,

Darahshon huqqai yoqut aro pokiza gavhardir.

Birinchi baytning ilk misrasida ma`shuqa ruxsori, ya`ni yuzi oyga o`xshatilib, ushbu oy yog`dusidan butun olam munavvarligi ta`kidlanadi. Ko`ryapmizki, ushbu o`rinda bir

yo`la ikki san`at mubolag`a va haqiqiy tashbehning eng ko`rkam namunalari ishlatilmoqda. Shu baytning ikkinchi masrasida yana bir marta manna shu ikki she`riy san`at qo`llanilgan. Ya`ni o`sha ma`shuqaning ma`naviy go`zalligi – latofati haqida so`z borib, uning latofat osmonining eng tepasidagi quyosh ekanligi qayd etilmoqda. Ya`ni yor quyoshga o`xshatilishi tashbehning haqiqiy shakli, bu holatning o`zi esa, mubolag`adir.

Keltirilgan parchaning ikkinchi misrasida ma`shuqaning ikki o`rim zulfi, ya`ni sochi boshdan-oyoq tovlanib turgan ajdarga o`xshatilmoqda. Demak bu o`rinda ham haqiqiy tashbeh ishlatilmoqda.

Uchinchi baytning birinchi misrasida lab la`lga, ikkinchi misrasida esa, og`iz yoqutdan qilingan huqqa, ya`ni qutiga, tishlar esa o`sh yoqut kuti ichdagi gavharga o`xshatiladi. Bularning barchasi aniq narsa va tushunchalar bo`lganligi sababli haqiqiy tashbehlar sanaladi.

Mazkur g`azal to oxirgi baytgacha mana shu singari birbiridan nafis va chiroyli, g`azal mazmunini unda ishtiroq qilayotgan lirik qahramon va ma`shuqa obrazini jonli va jozibali aks ettirishga xizmat qilgan.

Shoirning o`xshaydur radifli g`azali ham boshdan-oyoq tashbehlar asosiga qurilgan:

Yuzing avji sabohatda mahi anvarga o`xshaydir,

So`zning xoni malohatda tuzu shakkarga o`xshaydur.

E`tibor berilsa, ushbu baytda tashbehning har ikki turi - haqiqiy tashbeh va majoziy tashbehlar baravar ishlatilganini ko`rishimiz mumkin: avji sabohat - go`zallik osmoni tushunchasi mavhum narsa bo`lganligi tufayli majoziy tashbehni yuzaga keltiradi; mah - oy, anvar - quyoshlar esa konkret narsalar

boʻlganligi sabab haqiqiy tashbehning yuzaga kelishiga xizmat qilib turibdi. Demak, birinchi misrada har ikkala tashbeh koʻrinishi birgalikda bir sanʼat sifatida namoyon boʻlmoqda.

Ikkinchi misrada esa gap maʼshuqa lutfining– soʻzining yoqimlilik haqida soʻz bormoqda. Yorning soʻzi nafosat dasturxonidagi tuzu shakarga qiyoslanmoqda. Bu oʻrinda ham nafosat dasturxoni mavhum tushuncha, tuz va shakkarlar esa, aniq narsalar boʻlganligi sababli bu misrada ham tashbehning har ikki turi haqiqiy va majoziy tashbehlar ishlatilgan degan qarorga kelish mumkin. Ikki xil tashbehdan bir oʻrinda foydalanish ham shoirdan juda katta mahorat talab qiladi, albatta.

Maʼnaviy sanʼatlarning eng murakkab turi i y h o m dir. U arabcha soʻz boʻlib, «gumonsirash», «xaypoʻshlash», «tahlikaga solish» degan maʼnolarni bildiradi. Sheʼrshunoslikda bu sanʼatni «tavri» deb ham atashadi. Bu sanʼat orqali shoir misra tarkibida kelgan muayyan bir soʻzga ikki maʼno yuklaydi. Sirtidan qaraganda shoir tashqi maʼnoni aytayotgandek tuyuladi, asl maʼno esa sheʼr botinida yashiringan boʻladi. Bunday hodisa hammaga tushunarli boʻlavermaydi. Buni anglash oʻquvchidan oʻta zukkolikni talab qiladi. Ogahiy asarlarida bu xil sanʼat unchalik koʻp ishlatilmagan. Bu esa, shoirning sheʼrlarida iyhom butunlay yoʻq degani emas. Biz shoir asarlarida ushbu sanʼatning ajoyib namunalarini uchratdik. Ogahiy «yuz», «ot», «son», kabi soʻz turkumlarini iyhom oʻrnida qoʻllaydi. Hatto bir soʻz misra tarkibida ikki marta qoʻllanilgan, ikki oʻrinda ham iyhom vazifasida ishlatilgan baytlarni ham uchratishimiz mumkin. Bunday holat boshqa shoirlarda kamdan-kam uchraydi;

Ochib yuz jilva birla onda yuz gul,

Urur chah-chah alar ishqida bulbul.

Ogahiyning tabiat tasviriga bag'ishlangan ushbu baytida «yuz» so'zi ikki o'rinda ham ikki xil ma'noda ishlatilgan. Buni anglash uchun biz vergulni dastlab har ikki «yuz»dan qo'yib o'qib ko'ramiz. Birinchi «yuz» o'zidan oldin kelgan «ochmoq» fe'li bilan aloqaga kirishadi va «yuz – bet ko'rsatmoq» degan ma'noni anglatadi. Bundan tashqari ayni shu so'z o'zidan keyin kelgan «jilva» so'zi bilan munosabatga kirishib, «yuz marta jilva qilish» ma'nosida kelib turibdi.

Ikkinchi «yuz» ham shunga yaqin. Ya'ni birinchi ma'nosi «onda – bog'da yuz gul ochildi», ikkinchi ma'nosi «bitta gul yuz ochdi» demakdir. Ikkinchi misradagi «alar ishqida» birikmasi gullarning ko'p ekanligidan dalolat beradi. Ammo misra alohida tahlil etilganda «yuz» so'zining har ikkalasi iyhom sifatida ishlatiganligining guvohi bo'lamiz.

Ogahiy o'z she'riyatida ko'p qo'llagan she'riy san'atlardan yana biri t a m s i l dir. Bu atama «misol keltirish» ma'nosini anglatib, she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan san'atdir. Birinchi misradagi fikr bilan keltirilgan misol o'rtasidagi munosabat mantiqiy -ko'pincha qiyosiy yo'nalishda bo'lib, diqqat badiiy tafakkur bilan hayotiy voqelik orasidagi o'xshashlikka qaratiladi.

Tamsil asosan birinchi misradagi ifodani o'xshatish yoki isbotlash maqsadiga qaratiladi. Quyidagi baytda shoir diqqati o'xshatishga qaratilgani aniq sezilib turibdi:

Manga la'ling zuloli bersang, ey dilbar, munosibdur,
Ki bermak ojiz o'lg'on xastag'a shakkar munosibdir.

Ushbu matla`ning birinchi misrasida oshiq ma`shuqasi labidan bo`sa so`rayotir va o`sha iltijosini ikkinchi misradagi hayotiy hodisa bilan asoslamogda. Ya`ni men sening hajringda bemor bo`lib, ojizlanib qolgan bir kishiman, xasta kishiga shakar bermoq munosibdir, deya ta`kidlamogda. Birinchi misradagi dardmand bemorga o`xshatilgan oshiq ikkinchi misrada ojizlikdan davo topish chorasi bilan ta`minlanmogda.

Ogahiyning quyidagi bayti «iyd» radifli g`azalidan olingan.

Toza libosi lutf ila qil mani shod iydkim,

Xoja kerakdur etsa qul jomasini jadid yid.

Ya`ni iyd kuni keldi, meni yangicha xush muomala libosi bilan siyla. Chunki hayitda xojalar o`z qullarini yangi liboslar bilan siylaydilar, deya xitob qiladi lirik qahramon. Bu baytda ham birinchi misradagi masala qo`yilayapti, ikkinchi misrada quyilgan masala hayotiy misol bilan asoslanmogda.

Ba`zan birinchi misradagi fikr ikkinchi misrada tamsil sifatida keltirilgan hayotiy misol bilan bir-biriga zid hollari ham uchraydi. Masalan, Ogahiyning

Oqil ersang bo`lmag`il g`arra jahon lazzatig`a,

Ul sifatkim tifllar ko`rsa bo`lar xursand qand, -

baytida shu holatni ko`ramiz. Diqqat bilan kuzatsak, keltirilgan «Bolalar qandni ko`rsa xursand bo`ladi» misoli birinchi misradagi «Oqil bo`lsang, jahon lazzatig`a aldanma» fikriga zid keladi. Lekin shoir hayotiy misolni birinchi misradagi fikrga qarama-qarshi qo`yib, baytda «Oqil bo`lsang jahon lazzatiga xuddi bolalar qandni ko`rsa xursand bo`lgani kabi, aldanmagin», -degan ma`noni ifodalagan.

Ogahiy g`azallarida tamsilning eng nafis namunalarini uchratishimiz mumkin. Mana ulardan yana birlari:

Necha boqsa xudbinlar bahra topmas ul yuzdin,
Kim ko`rar o`zi aksin ko`zgu ichra nozirlar.

Istasang visolini sabr qil firoqig`a,
Kim etar murodig`a sabr birla sobirlar.

Ushbu parchalarning har ikki baytida ham tamsilning ajoyib ko`rinishi ustalik bilan qo`llanilgan. Birinchi baytda go`zalning tiniq yuziga xudbinlar har qancha boqsalar ham hech qanaqa bahra ola olmaydi, negaki oynaga boqqan kishi o`z aksini ko`radi, deyiladi. Ya`ni ikkinchi misradagi misol birinchi qatordagi fikrni dalillab kelmoqda.

Ikkinchi baytdagi misralarning birinchisida lirik qahramon o`ziga murojaat qilib, «Agar yor vaslini istasang, uning nozu firog`iga bardosh ber, sabr qiluvchilar murodig`a etadilar» degan fikrni ilgari suradi. Har ikkala baytda xalq maqollarining o`ziga xos shakli ishlatilgan.

Ogahiy ba`zan xalq maqollarini unchalik ko`p o`zgartirmasdan ishlatgan o`rinlar ham uchraydi:

Hayosizdan aslo vafo istama,
Vafosizdan aslo hayo istama.

Ushbu bayt Alishekr Navoiy tilidan aytilib xalq maqoliga aylanib ketgan «Hayosizda vafo yo`q, vafosizda hayo yo`q» degan aforizmning salgina o`zgartirilgan variantidir.

Ogahiy o`z she`riyatida keng qo`llangan she`riy san`atlardan yana biri t a z o d dir. Adabiyotshunos olim A.Hojaiahmedovning uqtirishicha, «Tazod so`zi «zid qo`yish», «qarshilantirish» ma`nolarini ifodalaydi. Shu so`z bilan ataluvchi she`riy san`at esa baytda ma`no jihatdan o`zaro zid,

qarama-qarshi boʻlgan soʻzlarni qoʻllab, taʼsirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi»¹.

Xullas, tazodda bir-biriga zid narsa va tushunchalar toʻqnashtiriladi, ayni choqda ularning zamini – bir-biriga qarama-qarshi tushunchalarni oʻzida mujassamlashtirgan obʼekt birligi va shu obʼekt taʼsirli qilib va unga nisbatan oʻquvchi qalbida faol munosabat uygʻotishdan iborat. Tazod yuzakiroq qaraganda antiteza usuliga ham oʻxshaydi. Ularning har ikkalasida ham bir-biriga qarshi tushunchalar zidlashtiriladi. Lekin ular orasida farqli jihatlar ham bor: antitezada toʻqnashuvchi narsa va tushunchalar ikki mustaqil manbadan kelib chiqsa, tazodda toʻqnashuvchi bir-biriga zid tushunchalarning kelib chiqish manbai bir boʻladi. Bir narsa ham yaxshilikning, ham yomonlikning kelib chiqishini oʻz ichiga qamrab oladi. Masalan, maʼshuqa kipriklaridan oʻq otib oshiqni xalok qilsa, uning laʼli lablari oshiqni hayotga qaytaradi, jon baxsh etadi. Demak, bir manbadan chiqqan yaxshilik va yomonlik toʻqnashtiriladi.

Tazodning zamonaviy sheʼrshunoslikdagi parallelizm va oksimoron deb yuritiluvchi vositalar bilan ham aloqador jihatlari mavjud. Parallelizmda ikki bir-biriga teng va mos narsalar qiyoslansa, oksimoronda bir-birini inkor qiladigan ikki narsa yonma-yon qoʻyilib obraz yaratiladi. Tazodda esa bir manbadan kelib chiqqan qarama-qarshi narsa va tushunchalar qiyoslanadi. Demoqchimizki, oksimoron ham, antiteza ham, paralelizm va tazod ham bir-birlaridan yuqoridagi jihatlari bilan ajralib turuvchi alohida-alohida sanʼat turlaridir.

¹ Hojiahmedov A. Sheriy sanʼatlar va mumtoz qofiya. T.: Sharq, 1998, 83 – bet

Ogahiyning devonidagi «Dildor mandin o`zgag`a» sarlavhasi ostida berilgan g`azali boshdan oyoq ushbu she`riy san`at asosiga qurilgan.

Vahki, aylab lutfu ehson yor mandin o`zgag`a,

Aylamas zulmu sitam izhor mandin o`zgag`a.

Ushbu matla`, ya`ni g`azalning birinchi baytida shoir bir necha tazodga xos tushunchalarni qarshilantirish orqali lirik qahramon boshiga tushgan ishq savdosining naqadar azob va alamli ekanligini ta`kidlaydi, oshiq dardini kuchaytirib, bo`rttirib tasvirlashga erishadi. Baytda lutfu ehson – yaxshilik, zulmu sitam – yomonlikka qarshi qo`yilmoqda. «Man» va «o`zga» shaxslari, shuningdek, «aylab» va «aylamas» kabi harakatni anglatuvchi so`zlar ham zidlovchi ma`nolar tashigan holda tazodlar yuzaga keltirib turibdi. E`tibor bilan qarasak, ushbu tushunchalarning barchasi bir manbadan, ma`shuqadan kelib chiqayotir. Shuning uchun ham ularni tazodning mumtoz namunasi deyishga haqlimiz.

G`azalning ikkinchi baytini kuzataylik:

Zahri hajrini berur har mangau vaslining

No`shini in`om etar bisyor mandin o`zgag`a.

Bu baytda «hajr» - «vasl», «zahar» - «no`sh» tushunchalari va birinchi baytdagidek «man» va «o`zga» so`zlari qarshilantirilgan. Natijada shoirning o`z ahvoli-ruhiyatining g`oyat nochorligi haqida ma`lumot o`quvchiga juda ta`sirchan bir shaklda etkazilgan.

Yuqorida ta`kidlaganimizdek ushbu g`azalning barcha baytlarida shu xil qarama-qarshi tushuncha, narsa va shaxslar

zidlashtirilib, lirik qahramon ahvolining, uning ruhiyatining juda chiroyli, ta'sirchan manzarasi ochib berilgan.

Ogahiy tazodning xilma-xil ko'rinishlardan juda ustalik bilan foydalanib, inson qalbi, hohish-istaklari, muhabbat yo'lidagi iztiroblarini g'oyat ta'sirchan tasvirlashga erishadi. Shoirning qo'llagan tazodlari boshqa she'riy san'atlar bilan tutashib ketgan o'rinlarni ham kuzatish. Ogahiy mahoratini yana bir qarra namoyish etadi:

Yuzing hayolida bog'i behisht bo'lur beshak,

Yo'lungda manzil agar bo'lsa dashtu tog` ham, -

yozadi shoir «Sharobi shavqing ila» deb nomlangan g'azalida. Mazkur baytdagi «Agar vasling hayolida yo'lga o'tlanadigan bo'lsam, yo'lingda tog'u dashtlarga uchraydigan bo'lsam ular menga behisht bog'lariday ko'rinadi» degan fikrni «bog'i behisht» va «dashtu tog`» birikmalarining qarama-qarshi ma'nolaridan foydalangan holda juda ta'sirli qilib o'quvchiga etkazishga erishgan. Bu o'rinda shoir qo'llagan tazod san'ati mubolag'a shaklini ham olib, barkamollik kasb etgan. Bu, albatta, Ogahiy yuksak mahoratidan dalolat beradi. Ogahiy lirikasida bunday mushtarak she'riy san'atlarni, ya'ni ikki xil san'at birikib, bir butunlik kasb etgan o'rinlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Shoir mahoratining bu jihatlari alohida o'rganishga arziydigan fazilatlar ekanligi shubhasizdir.

Ogahiy lirikasida, xususan, g'azallarida ko'plab qo'llaydigan she'riy san'atlardan yana biri t a d r i j dir. Tadrij arabcha so'z bo'lib, «ketma-ket», «peshma-pesh», «asta-sekin» degan ma'nolarni bildiradi. Atama sifatida esa voqea, ma'no yoki vaziyatning asta-sekinlik bilan, darajama-daraja rivojlanish

jarayonida ifodalaydigan tadrij san`atini anglatadi<sup>1</sup>. Tadrij ko`pincha poetik ma`no yoxud obrazni o`xshatishlar vositasi bilan pema-pesh o`sis jarayonida tasivrlashga xizmat qiladi. Masalan, «Ko`ring» radifli g`azalini ko`zdan kechiraylik:

Ul yuzi gul nigorning mehri jamolini ko`ring,

Mehri jamoli ustida ikki hilolini ko`ring.

Ikki hilolini ko`rib qonmasa mehringiz agar,

Sahfai orazi uzra nuqtai holini ko`ring.

Nuqtai holini ko`rib sabr eta olmas, ersangiz,

Xusnu jamoli bog`ida, qaddi niholini ko`ring...

G`azalning barcha baytlarida lirik qahramon mana shu tarzda o`z ma`shuqasining barcha a`zolariga, yorga go`zallik baxsh etib turgan jihatlariga diqqat qaratadi, ularning har bittasiga to`xtalib, munosabat bildiradi. G`azalni o`qigan o`quvchi tasvirdagi go`zalni yanada latofatliroq tasavvur qiladi.

Shoirning «O`p» radifli g`azali ham tadrij shaklida yozilib, visol gashtining lazzatidan bahra olgan oshiq zavq-shavqqa to`la xitobidan iboratdir. Ushbu she`rda ham Ogahiy sevikli yorning qariyb barcha muchalarini bir-bir ta`riflab ulardan olingan bo`salar totini madh qiladi...

Agar ushbu g`azallarni sinchiklab o`qib, lirik qahramonning ruhiy holatini kuzatadigan bo`lsak, tadrij san`atining yorqin namunasini ko`ramiz. Negaki, g`azallarda lirik qahramon diqqati markazida seviklining vaslidan oladigan zavqi shavqi tadrijiy ravishda o`sib boradi.

Ogahiy she`riyatida ko`p qo`llab, chiroyli ruhiy manzaralar yaratgan she`riy san`atlardan yana biri t a l m i h san`atidir. Talmih arabcha so`z bo`lib «nazar solmoq» degan ma`noni

¹ Bu h`aqda qarang. Boboev T., Boboeva Z. Sheriy sanatlari, T., 2001 y., 52–bet.

anglatadi. Mumtoz she`rshunoslikda esa, mashhur bir afsona, tarixiy voqea, adabiy asarlar, maqollar, qahramonlarga ishora qilish san`atiga nisbatan ishlatiladi.

Shoirlar muhabbat mavzuidagi she`rlarida ko`pincha Sharqda keng tarqalgan «Farhod va Shirin», «Layli Majnun», «Vomiq va Uzro», «Tohir va Zuhro» kabi dostonlar qahramonlariga ishora qiladilar. Shu yo`l bilan lirik qahramonning ruhiy holatidagi kechinmalarni bo`rttirib tasvirlashga erishadilar. O`quvchi u yoki bu qahramonga ishorani ko`rarkan, uning ko`z oldida o`sha qissa yoki doston, afsona mazmuni, uning qahramonlari taqdiri jonlanib shoir demoqchi bo`lgan g`oyani, fikrni, tuyg`uni yorqinroq tasavvur etadi, chuqurroq anglab etadi. Shuning uchun bu jarayonda o`quvchi mutolaa qilayotgan asar qahramoni hayoti, tuyg`ulari va ma`naviy qiyofasini o`sha mashhur qissa yoki boshqa asarning qahramoni bilan qiyoslaydi. Masalan, Ogahiyning «sharbati jondan laziz» sarlavhasi ostida berilgan g`azalida shunday bayt bor:

Garchi iso nutqidin topgay o`luk jon lazzatin,

Lek jonparvar so`zing yuz qotladur ondin laziz.

Bu bayt Iso so`zi talmih sifatida, ya`ni she`riy san`at vazifasida qo`llanilib turibdi. Ma`lumki, Iso diniy xarakterdagi tushuncha bo`lib, tarixiy manbalarda «qutqaruvchi» deb nom olgan xristianlarning payg`ambaridir. Diniy manbalarda xabar berilishicha, u o`liklarni o`zining shifobaxsh nafasi bilan tiriltirish qobiliyatiga ega bo`lgan. Yuqoridagi baytning birinchi misrasida Iso payg`ambarning o`sha harakatiga ishora qilinmoqda. Ikkinchi misrada ma`shuqaning lafzi ham jon

baxshlashi ta`kidlanib, uning lazzati Iso payg`ambar nafasidan ham «yuz qatlo» lazzatli ekanligi uqtirilmoqda.

Shuni alohida ta`kidlash o`rinliki, talmih san`atini to`la tushunib, uning badiiy-estetik zavqini to`la his qilish uchun kitobxon muayyan intellektual tayyorgarlikka ega bo`lishi kerak. Masalan, yuqoridagi Iso bilan bog`liq talmih vositada o`rtaga tashlanayotgan fikrni anglab etish uchun o`quvchi Iso payambar haqida muayyan bilimga, bemorlarni qayta tiriltirgani haqida ma`lumotga ega bo`lishi zarur. Yana bir misol:

Ey ko`ngil, osoyishi bilan bazmi visol istar ersang,
Chek baloyi hajr aylab, sabraro Ayyubliq.

«Sarvning sarkashligi bevajh emas» degan sarlavha ostida e`lon qilingan ushbu g`azalning baytidagi «Ayyubliq» so`zi bu o`rinda talmih sifatida qo`llanilmoqda. Ushbu talmih ham diniy tushuncha asosida yaratilgan. Ayub ham payg`ambarlardan biri bo`lib, u Olloh oldida ushbu nomga g`oyat sabru bardoshlilik sababli payg`ambarlik darajasiga erishgan.

Ogahiy she`riyatidagi oshiq ko`plab ruhiy qiynoqlar va mashaqqatlarga sabrli, mustahkam irodali va e`tiqodli kishidir. Zero, Ogahiy oshiq hijron iztiroblari va azoblariga bardosh qilsagina, ma`shuqa vasliga yetishishi mumkinligi badiiy talqin etiladi:

Ey ko`ngul, vasl istasang sabr et baloyu dardg`a,
Kim, mukarrab tangrig`a bu shevadin Ayyub erur.

Shoir o`z lirik qahramonini baloyu dardga sabrli bo`lishga undar ekan, unga sabr-toqat timsoli bo`lgan Ayyub payg`ambarni o`rnak qilib ko`rsatadi. Ya`ni Ayyub sabr qilib, Haqqa

yaqinlashganidek, lirik «men» ham o`z maqsadiga erishadi. Zero, sabr maqomida bo`lgan kishi, albatta, maqsadiga etadi.

Tasavvuf ta`limotiga ko`ra sabr – faqirning so`nggi maqomi. Bu xaqda adabiyotshunos olim, professor I.Haqqulov shunday deydi: «Bu maqomda solik tashqi dunyo mashaqqatlariga chidash bilan birga «har ne haqdin yuzlansa, taxammul pesha qilg`ay»...Sabr maqomi tasavvufda ruh ulug`vorligi, qalb pokligi va ahloq hurligini muhofaza etish vositasidir»².

Yuqoridagi baytdagi «sabr et baloyu dardg`a» kabi eran iboralar mohiyatini talmeh san`ati asosida Ogahiyning mislsiz sabr-qanoatli hayoti, e`tiqodi va ruhining ulug`vorligi, qalbining pokligi bilan mushtarak holda tushunmoq kerak.

Ogahiy she`riyatida keng qo`llangan she`riy san`atlardan biri t a s h x i s dir. «Tashxis» arabcha so`z bulib, «shaxs» o`zagidan hosil bo`lgan bo`lib, «shaxslantirish» degan ma`noni anglatadi. Demakki, tashxis faqat insongagina xos bo`lgan jismoniy va ruhiy holatlarni tabiat manzaralari, jonzotlar, borliqdagi narsa-buyumlar hamda hayotdagi tushunchalarga ko`chirish san`atidir. Tashxis orqali shoir tasvirlanayotgan manzara yoki tushunchani o`quvchi tasavvurida qayta jonlantirib, she`rdagi timsollar jozibasini oshiradi. Ularning hissiy ta`sirini kuchaytiradi.

Ogahiy she`riyatini tahlillash davomida tashxis san`atidan unumi foydalanib, o`ziga xos timsol va tasvirlar yaratganligiga guvoh bo`lamiz:

Tarab tiflin tug`urdi dahr zoli,

Ango bo`ldi magarkim doya navro`z.

¹ I.Haqqulov.Tasavvuf va sheriyat.T. 1991.,22-bet.

Dunyo kampiri shodlik chaqalog`ini tug`arkan, navro`z unga doyalik qildi. Biz yashayotgan Dunyo juda qadim bo`lganligi uchun kampirga o`xshatilyapdi. Ko`klamning kelishi barchaga shodlik, quvonch keltiradi. Ana shu shodlik chaqalog`ini navro`z doyaligida dunyo kampiri tug`moqda. Mazkur baytning o`zida uchta tashxis bor: shodlik (tushuncha) tug`ilmoqda; dahr (borliq) zoli tugmoqda; navro`z (tabiat) doyalik qilmoqda:

Noz-u ado-u g`amzasi qasdim qilurlar dam-badam,
Vah, muncha ofatmu bulur bir odamizod ustina!?

Ma`shuqaning nozi, adosi va g`amzasi navbatma-navbat menga qasd qiladilarki, bir odamning ustiga shunchalar ham ofat bo`ladimi?

Baytdan ko`rinadiki, insonning o`zidagi holat, hislat va fazilatlar ham tashxis uchun asos bo`lishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, Ogahiy o`z zamonasining ilg`or shoiri sifatida mumtoz adabiyotda qo`llaniladigan barcha ma`naviy san`atlardan ustalik bilan foydalangan. Ularning turlari va ko`lami nihoyatda ko`p va keng. Qo`llanilgan badiiy san`atlarning barchasiga to`xtalish, ularning shoir mahoratidagi o`rni va roli haqida to`lig`icha gapirishning sira imkoniyati yo`q. Bu ish yirikroq tadqiqotlarga asos bo`lishi mumkin.

2—fasl. Ogahiy she`riyatida lafziy san`atlarning qo`llanilishi

Adabiyotshunosligimizda she`riy san`atlarni ma`naviy va lafziy san`atlarga bo`lib o`rganish an`ana bo`lib kelgan. Ma`naviy san`atlar asardagi g`oyalarni yorqin ifodalash, lirik va epik timsollarni hayotiyroq gavdalandirish, ularning ma`naviy qiyofalari, his-tuyg`ularini ta`sirchanroq aks ettirishga xizmat qilgan bo`lsa, lafziy san`atlar adabiyotning til jihatdan jozibadorligini, ohangdorligini ta`minlashga yordam bergan.

Biz avvalgi faslda ma`naviy san`atlarga to`xtalib, Ogahiy she`riyatida ularning o`rni va roli qanday ekanligini belgilashga imkon qadar harakat qildik. Ushbu faslda esa, so`zning tovush va ohang jihati bilan bog`liq bo`lgan lafziy san`atlarga to`xtalishga harakat qilamiz. Bu hil san`atlarning Ogahiy ijodidagi o`rnini, shoir mahoratini ta`minlashdagi vazifasini aniqlashga intilamiz.

Lafziy san`atlar g`oyatda rang-barang bo`ladi. Biz ishimizda shoir Ogahiy she`riyatida ko`plab ishlatilgan, mumtoz adabiyotimizning boshqa vakillari uchun ham umumiy xususiyatga ega bo`lgan lafziy san`at turlariga to`xtalib o`tishni lozim topdik.

Mazkur turdagi she`riy san`atlarning eng jozibadorlaridan biri t a r s e ` san`atidir. Tarsi` so`zi arabcha bo`lib, «ziynatlash» degan ma`noni anglatadi. She`rshunoslikda esa, baytda birinchi misra so`zlari ikkinchi misradagi so`zlar bilan ham son jihatidan, ham vazn jihatidan mos kelishi usuliga nisbatan qo`llaniladigan atamadir. Tarsi` san`atida bayt misralaridagi hijolarning soni va sifati ham, ya`ni qisqa cho`ziqligi ham hisobga olinadi.

Ashkima gar kanora yo`q, bo`lmasa bo`lmasun netay,

Ohima ham shumora yo`q bo`lmasa bo`lmasun netay.

E`tibor berilsa har ikki misrada ettitadan so`zlar mavjud. Ularning har biri hijolar miqdori bilan ham bir birlariga teng. Hijolarning sifatini kuzatganimizda ham xuddi shunday mutanosiblikka – moslikka asoslanishning guvohi bo`lamiz. «Ashkima» so`zi bir cho`ziq va ikkita qisqa hijolardan tashkil topgan. Ikkinchi misradagi «Ohima» so`zi ham bu jihatdan «akshima» ning takroridir. Misralardagi «gar» va «ham» so`zlarida ham mana shunday moslik, ya`ni ularda bittadan hijo, bir xil – cho`ziq hijo mavjud. «Kanora» va «shumora» so`zlarining har ikkalasida birinchi va uchinchi hijolar qisqa, o`rtadagi hijo cho`ziqdir. Misralardagi «yo`q», bo`lmasa bo`lmasun netay birikmalari esa, radif sifatida bir-birlarining takroridir.

Ogahiy g`azallarida bu xil she`riy san`atdan juda o`rinli foydalanib, baytning ohangdorligini ta`minlashga erishilgan.

Yuzing avji sabohatda mahi anvarga o`xshaydur,

So`zing xoni malohatda tuzu shakkarga o`xshaydur.

Mazkur baytdagi «yuzing» - «so`zing», «sabohatda» - «malohatda», «mahि anvar» - «tuzu shakkar» so`zlari va so`z

birikmalari tarkibidagi hijolar soni va sifati jihatdan ham, ohangdoshligi jihatdan ham bir-birlariga mutanosib bo'lganligi uchun tarsi` san`atining eng ajoyib namunalaridan sanaladi.

Ogahiyning «Sharm aylasang...» sarlavhasi ostida devonga kiritilgan g`azali matla`sida ham ushbu she`riy san`atning go`zal namunasini uchratamiz. Ushbu matla`dagi tarsi` boshqa shu xil vositalardan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Ushbu joydagi mutanosib birliklar avvalgi tarsi`larda bo`lgani singari so`zlararo emas, balki so`z birikmalari orasida mavjuddir:

Ey yuzing shavqi tanimdin oldi jon, bir bo`sa ber,

Vay labing zavqi ichimni qildi qon, bir bo`sa ber.

Baytdagi «Ey yuzing shavqi» - «Vay labing zavqi», «tanimdin oldi jon» - «ichimni qildi qon» birikmalari o`zaro bir xil hijolardan tashkil topgan bo`lib, qofiyadoshligi bilan ham diqqatga sazovordir.

Ogahiy ishlatgan lafziy san`atlar ichida t a k r i r she`riy san`ati ham diqqatga sazovordir. Takrir «takrorlash» ma`nosidagi she`riy san`at bo`lib, she`rda u yoki bu so`zni takror qo`llashni nazarda tutadi. Takrorlash orqali so`z yoki birikma zamiridagi ma`noni ta`kidlash, shu yo`l bilan ham asarning ohangdorligi hamda shoir g`oya-maqsadining ta`sirchanligi ta`minlanadi ushbu she`riy san`at vositasida Ogahiy lirikasida takrirning g`oyat go`zal ko`rinishlari qo`llanilgan.

Chu deding telba ko`ngling kimgadur shaydoyu oshufta,

Eshitkil, pari paykar, sangodur bu, sangodur bu.

Samoviy yuksaklikdagi ko`ngil intilishlaridan mamnun oshiqning a`naviy-ruhiy olami nihoyatda go`zal. Shuning uchun

ham u ruhiy olamning sirli teranligi, mo`jizakor qudrati, ko`ngil telbalik ixtiyor etgani mahbuba tufayli ekanligini faxr bilan e`tirof etadi. Shoir takrir san`ati vositasida «sangodur bu» jumlasini takror qo`llash orqali oshiqning yorga munosabatini bo`rttirib tasvirlaydi. Shuningdek takrir lirik «men»ning qiyofasini yorqinroq gavdalantirish, uning ko`ngil dardlarini chuqurroq aks ettirishga yordam beradi.

Ogahiy nafaqat ba`zi bir so`zlarni bir marta takrorlab ushbu san`atdan foydalanadi. Balki butun boshli birikmalarni qayta-qayta takrorlash vositasida juda ta`sirchan ruhiy tasvirga erishadi:

Jonum olur ey pari, holimga boq,

Ishtiyoqu ishtiyoqu ishtiyoq.

To mani furqatda qo`yding nolishim,

Al firoqu al firoqu alfiroq.

Aylamishsan qatlima ag`yor ila

Ittifoqu ittifoqu ittifoq.

Bovar etmassan desam yuz yolborib

Ko`nglim oqu ko`nglim oqu ko`nglim oq...

kabi baytlarning ikkinchi misralaridagi takrorlar ham ushbu so`zlarda ifodalanayotgan ma`nolarni, fikrlarni ta`kidlashga xizmat qiladi, ularni kuchaytiradi, kechinmalar, tuyg`ular mavjini, ehtiroslar olamining benihoyaligini aks ettiradi. Demak, asar qahramoni bo`lgan oshiq qiyofasini gavdalantirish, uning dil dardlarini ta`sirchanroq mujassamlashtirish vazifasini bajaradi. Yana bir g`azalni ko`rib chiqaylik:

Lutf etib ushshoq aro qilg`il mani,

Sarafrozu sarafrozu sarafroz.

Muddaiylar suhbatidin aylagil

Ihtirozu ihtirozu ihtiroz.

Birinchi baytda ishq izhor qiluvchi oshiqlar aro «mening martabamni yuqori, ya`ni sarafroz qil» degan mazmunni ta`kidlash uchun «sarafroz» so`zi takrir sifatida vazifa bajarmoqda.

Ikkinchi baytda takrorlanayotgan «ihtiroz» so`zi esa muddaiy, ya`ni raqiblar suhbatiga kirma, ularning gaplariga e`tiroz ber» degan ma`noni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Ogahiy o`z g`azallarida ko`p qo`llagan she`riy san`atlaridan yana biri k i t o b a t san`atidir. She`riyatimizda keng qo`llanilib kelingan ushbu san`at arab alifbosi harflari shaklidan lirik va epik timsollar chizishda foydalanishni ko`zda tutadi. Ma`lumki arab alifbosi to`g`ri va egri, doirasimon, yoysimon shakldagi harflardan tashkil topgan. Sharq shoirlari ana shu shakllarga qiyoslash orqali muhim ijtimoiy-siyosiy, ma`rifiy-ahloqiy g`oyalarni ifodalashda mahorat bilan foydalanganlar. Ishqiy mavzudagi asarlarda ma`shuqaning turli a`zolarini, lirik qahramon ahvoli-ruhiyatidagi turli xil kayfiyatlarni aks ettirishda ham bu san`atdan unumli foydalanishgan.

Ogahiy she`riyatining badiiyatida ham ushbu san`at alohida vazifa bajargan. Masalan:

Dog` uzra alifdurkim ko`ksim uza chekmish hajr

Yo dard sipehrida mehvarmi ekan oyo?

Mazkur baytda shoir «dog`» va «dard» so`zlarining arab alifbosida yozilish shaklidan kelib chiqib, harf o`yini qilgan. Bu o`rinda shoir o`z ko`ksini dard osmoniga, ko`ksiga yor tomondan solingan «dog`» so`zi tarkibidagi alif harfini esa o`sha osmon markaziga – o`qiga o`xshatib lirik qahramonning ruhiy

holatining g`oyat og`ir ekanligini chiroyli va ta`sirchan bir tarzda ifodalamoqda. Yana bir misolga murojaat qilaylik:

Qading hijronida jonim o`lsa, tong emaskim,
Latofatda sanga zebo alifdur «jon» aro qomat.

Bu joyda kitobat san`ati shunday mazmun tashishga bo`ysundirilgan: «Jon» so`zining butunligi «j» va «n» harflari orasidagi alif bilan bo`lgani singari, sening go`zalliging boisi ham alifdek tik va kelishgan komatingdir. Alif harfidan ajralgan «jon» so`zi muqarrar ravishda buzulganidek, sening qading, ya`ni o`zingsiz mening hayotim ham barbod bo`lishi tayin», deydi shoir ushbu she`riy san`at vositasida.

Ogahiyning «Ustina» radifli g`azalida ham kitobot san`atiga bir necha o`rinda murojaat qilinadi. G`azalning birinchi bayti teran mazmun va nodir she`riy san`at asosiga qurilgani uchun ham juda o`qimishli va kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi:

Mushkin qoshining hay`ati ul chashmi jallod ustina
Qatlim uchun nas keltirur nun eltibon sod ustina.

Shoirning asosiy maqsadi ma`shuqaning qosh va ko`zini ta`riflashdir. Lekin Ogahiy quruq maqtoov va ta`rif yo`lidan bormaydi. Hayratomuz badiiy manzara yaratadi. «Mushkin qosh», ya`ni mushk singari qora va xush hidli ingichka qosh «chashmi jallod» - jallod ko`zlar atrofida hay`at a`zolaridek, joylashib olgan. Bu erda ko`zning qatl qiluvchi, jon oluvchi jallod sifatida tasvirlanishi an`anaviy hodisa, «mushkin qosh» tushunchasi ham an`anaviy. Biroq mushkin qosh tuklarining jallod ko`z atrofida hay`at a`zolaridek tizilishib, jallod bilan bir bitimga – oshiq qatli haqida qarorga kelishi butunlay original topildi. Boshqacha aytadigan bo`lsak, Ogahiy shoir sifatida

mavjud an`analar asosida novatorlik qilmoqda. Qatl haqidagi qarorning badiiy ifodasi juda zo`r, kitobot san`atining eng sara namunalari ishtirokida yuzaga kelgan. Qoshning «nun» harfiga qiyoslanishi, ko`zning «sod» harfiga taqqoslanishi ham mavjud an`ana. Lekin kamdan-kam shoirgina ushbu san`atlarning har ikkalasini bir o`rinda, bir maqsadga bo`ysundirilgan holda ishlata oladi. Buning ustiga Ogahiy qosh va ko`zning ittifoqini ifodalash uchun ularni ostma-ost tasvirlaydi. Aslida ham qosh va ko`z shunday joylashgan. Ushbu birikuv natijasida «nas» so`zi, ya`ni «hukm» so`zi vujudga kelgan. Bu oddiy xukm emas, katl uchun chiqarilgan xukm matni degan ma`noni anglatishini esga olsak, baytda yashiringan mazmunning mohiyati yanada yaqqolroq seziladi.

Ogahiy lafziy san`atlardan *m u v o z a n a n i* ham keng qo`llagan. Bu so`z «vazn jihatdan mutanosiblik» degan ma`noni anglatadi. Ushbu san`at bayt misralaridagi barcha so`zlarning vazn, ya`ni o`lchov jihatdan o`zaro teng bo`lishiga asoslanadi. Masalan, Ogahiy qalamiga mansub

Ishqing g`amida diydai giyonima rahm et,

Hajring tunida nolai afg`onima rahm et.

Ushbu baytni ko`zdan kechirsak, misralardagi *ishqing* – *hajring*, *g`amida* – *tunida*, *diydai* – *nolai*, *giyonima* – *afg`onima*, *rahm et* – *rahm et* so`zlari o`lchov va ohang jihatdan o`zaro teng ekanini ko`ramiz.

Bu xil misralardagi barcha so`zlarning bir-biriga muvofiqligi bayt ohangdorligini, musiqiyligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu tufayli ham shoirlarimiz, ayniqsa Ogahiy ushbu she`riy san`atga juda ko`plab murojaat qilgan.

Yuzung avji sabohatda mahi anvarg`a o`xshaydur,

So`zing xoni malohatda tuzu shakkarga o`xshaydur.

Ushbu baytda ikki so`z emas, hatto uch so`z qofiyalanib kelib, ya`ni yuzung – so`zung, sabohatda – malohatda, anvarg`a – shakkarg`a so`zlarining o`zaro qofiyadoshligi asarning musiqiyligini yanada bir bahya ko`targan.

Ogahiy sharq adabiyotida keng tarqalgan j a m ` san`atidan ham ustalik bilan o`rinli va unumli foydalangan. Ushbu san`at narsa va tushunchalarni biror belgi bo`yicha baytda jamlab, ular orasidagi munosabat asosida biror obraz yaratsa va tushunchalarning haqiqiy va majoziy, aniq va mavhumiy ma`nolarini nazarda tutadi. Jamlash uchun asos bo`lgan belgilar «jomi» ya`ni to`plovchi deb yuritiladi. Jomi she`r misralarida aniq ko`rinib turishi yoki yashirin holda ham bo`lishi mumkin.

She`r baytlarida narsa va tushunchalar bir yoki bir necha belgi asosida jamlanishi ham mumkin. Ogahiyning g`azallaridan bir baytni tahlilga tortib ko`raylik:

Sarig` yuzga arig` ashkim necha oqsa emasdur sud,

Ki istig`no kamolidin zaru gavharni yod etmas.

Mazkur baytda birinchi misrada mah – oy, anvar - quyosh ma`shuqa yuzi ifodasi uchun jamlanmoqda. Ikkinchi misrada esa, shahd – asal, kavsar – jannatdagi buloq suvi tushunchalari jamlanib labning ta`rifini ta`minlashga xizmat qilmoqda.

Xullas, Ogahiy xoh ma`naviy she`riy san`atlardan foydalansin, xoh lafziy she`riy san`atlarni qo`llasin, u mohir va talantli shoir sifatida namoyon bo`ladi.

U M U M I Y X U L O S A L A R

Mazkur bitiruv ishimizda o`zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, talantli shoir va tarjimon, Muhammad Erniyozbek o`g`li Ogahiyning lirik asarlari, xususan g`azallarida she`riy san`atning qo`llanilishi masalasi atrofida imkon qadar fikr-mulohazalar yuritdik. Ishimizni tayyorlash jarayonida shu narsaga amin bo`ldikki, Ogahiy badiiy ijodga juda katta mas`uliyat bilan yondashib, mumkin qadar ko`p va yaxshi asarlar yaratishga e`tibor qaratgan. O`z davrida mavjud bo`lgan barcha tur va janr ko`rinishlaridan ustalik bilan foydalangan.

Ma`lumki, shoir o`z umri davomida faqat lirik ijodkor sifatida emas, tarixchi va tarjimon sifatida ham, epik qo`llamdagi asarlar yozish bilan ham shug`ullangan. U adabiyotimiz tarixida zullisonayn shoir, ya`ni ikki tilda – tojik va o`zbek tillarida qalam tebratgan shoir sifatida ham mashhur shaxsdir.

Ogahiyning devonida she`riy asarlarni ko`zdan kechirar ekanmiz, uning mumtoz she`riyatimizda bo`lgan she`riy shakllarning qariyb hammasida ijod etganligining guvohi bo`lamiz. Shu o`rinda uning nafaqat shoir, balki she`riyat sohasining bilimdoni ekanini anglab yetamiz.

Mumtoz an`analarga ko`ra shoirlar to`rt yoki olti misralik badiiy parchada biror so`z yoki tushunchani yashirin ifodalashga asoslangan qator she`rlar yaratishgan. Ular shu yo`l bilan o`quvchini o`ylashga, fikrlashga, so`ngra muayyan xulosaga kelishga undaganlar va shu yo`l bilan o`quvchilarning aqliy va hissiy faoliyatini oshirishga intilganlar. She`riyatning ushbu shakli «chiston» deb atalgan. Ba`zi shoirlar so`z o`yini uchun, ba`zilari esa, jiddiy bir fikrni ifodalash niyatida chiston

yaratgan. Ogahiy she`riyatida chiston muhim bir jiddiy masalaga bag`ishlanishi bilan xarakterlidir. Masalan, tubandagi to`rt misralik chistonda oyog`i bitta, boshi oltita va qanoti saksonta bo`lgan qush to`g`risida gapiriladi. Uning zamon ahli aro oti bor, biroq o`zi yo`qlik oshiyonida makon tutgani ta`kidlanadi. Shoir zamondosh kitobxonlarni ushbu jumboqqa javob topishga undaydi.

U na yanglig` turfa qushkim, oltidur oning boshi,
Turfaroq bu kim oyoq birdur, qanot sakson ango.

Garchi oning bu zamon ahli aro bordur oti,
Lek yo`qlug` oshiyoni ichradur maskan ango.

Bu chistonda «vafo» degan so`z yashiringan bo`lib, bu bir qancha sonlar – 6, 80 va 1 bilan ifodalangan. Ya`ni «vafo» so`zidagi «vov», «alif» hamda «fe» harflarining abjad hisobidagi raqamlari orqali ifodalangan. Demak, Ogahiy o`z zamonasida vafo so`zi ishlatilsa ham, aslida ushbu ma`nodagi tuyg`u yo`qligini ta`kidlamoqda.

Ogahiy she`riyatida shunday shakllar borki, ularni boshqa shoirlarning devonlarida uchratish qiyin;

U sho`xki	ochildi	xatti	ruxsori
Ochildi	rayohinda	yuzi	gulnori
Xatti yuzi		besabru qarori	manman,
Ruxsori	gulnori	manman	zori.

Bu she`rlarning to`rtala misrasini ham odatchasiga, ham tikkasiga o`qish mumkin va ular har ikki holda ham bir xil o`qiladi. Bunday she`rni yaratishning o`zi bo`lmaydi, albatta. Ushbu xil holatlar Ogahiy shoirlik mahoratining g`oyat yuksak bo`lganidan dalolat beradi.

Tong ermas, Ogahiy, ahli jahon she`ringga mayl etsa,
Nadinkim, har so`zing nazm ichra bir gavharga
o`xshaydur...

deb yozgan edi shoir o`zining bir g`azalida. Hozir bu
faxriyaning naqadar haqiqat ekani, shoir bashoratining o`rinli
ekanini ko`rsatadi.

Muhammadrizo Erniyozbek o`g`li Ogahiyning ko`lami keng
ilmiy-adabiy merosi, xususan, badiiy ijodining yuksak qiymati
XIX asrning 2-yarmidayoq bilimdonlar va muxlislar tomonidan
xushnudlik bilan e`tirof etilgandi, shuhrat qozongan edi.
Shuning uchun ham zamondoshi Komil Xorazmiy:

Ulki ogohlarning ogohidur,
Fahmu donish sipehrining mohidur,
So`zi ortuqdurur guhardin ham.

Fazlu donishda olam ichra a`lam... –

deb, o`z ustoziga g`oyat samimiyat bilan munosabat bildirgan
edi.

Ogahiy o`z lirikasida boy tarixga ega bo`lgan mumtoz
she`riyatimiz an`analarini davom ettirib, g`oyat o`ynoqi va
dilbar g`azallar bitdi. Ularda hayot go`zalligini, insonning orzu-
intilishi, muhabbati va ma`naviy olami o`z ifodasini topdi.

Xulosa qilib aytganda, o`zining sermahsul ijodiy merosi
bilan o`zbek adabiyoti xazinasini ancha boyitgan. Ogahiyning
badiiy mahorati masalalarini to`laligicha o`rganish juda
murakkab bir ish. Biz ushbu bitiruv-malakaviy ishimizda Ogahiy
merosining bir qismi bo`lmish lirik asarlarida, asosan, maktab
dastur va darsliklaridan o`rin olgan asarlarida she`riy san`atlarni
qanday qo`llanilgani xususida imkoniyatimiz darajasida so`z
yuritishga harakat qildik. Ogahiy qo`llagan she`riy san`atlar

yuqorida ko`rib chiqqanimizdek, g`oyat o`rinli va ustalik bilan ishlatilgan, ularning eng mumtoz ko`rinishlari darajasiga etkazilgan. Bu jihatlar ham Ogahiy mahoratining, badiiy didining yuksakligidan dalolat beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O`zbekiston, 1998 y.
2. Karimov I. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, “Manaviyat”, 2009.
3. O`zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 4-tom, T.: Fan, 1978.
4. Abdullaev V. O`zbek adabiyoti tarixi, T.: O`qituvchi, 1984 y.

5. Xusayniy Atoulloh. Badoe` us-sanoe, T.: Fan, 1980 y.
6. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati, T.: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1979 y.
7. Mualliflar jamoasi. Atoqli shoir, tarjimon, tarixnavis, T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999 y.
8. Jumaho`ja Nusratullo, Adizova I. So`zdan baqoliroq yodgor yo`qdur, T.: O`zbekiston, 1995 y.
9. Mualliflar jamoasi. Adabiyot nazariyasi, 2 tomlik, T.: Fan, 1978 y.
10. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi, T.: O`qituvchi, 1980 y.
11. Boboev T., Boboeva Z. Badiiy san`atlar, T.: 2001 y.
12. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari, T.: sharq, 2002
13. Hojiahmedov A. She`r san`atlarini bilasizmi? T.: Sharq, 1999-y
14. Hojiahmedov A. She`riy san`atlar va mumtoz qofiya, T: Sharq, 1998 y.
15. Rajabova B. Tamsil san`ati, T.: Fan, 2002 y.
16. Ogahiy. 6 tomlik, 1-jild. Devon, T.: Adabiyot va san`at nashriyoti. 1971 y.
17. Ogahiy she`riyatidan. O`zKP MK nashriyoti, T.: 1983
18. Yo`ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. T.: «Yangiyo`l poligraf servis» 2010.
19. <http://pedagog.uz/>
20. [www.o'zbek](http://www.o'zbekadabiyoti.com) adabiyoti.com